# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI NAVOIY SHAHAR HOKIMINING QARORI

Navoiy sh., Amir Temur.k 4.

2022 - yil 3 - oktabr 250-5-79-Q/22 Navoiy shahar hokimligi

## Navoiy shahridagi avtomobil yo‘llariga svetoforlarni o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. Navoiy shahrida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetoforlar o‘rnatilsin.

2. Navoiy viloyati IIB JXX YXXB (Yunusmetov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (Ortiqov)ga shahardagi avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek, berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Navoiy shahar IIB YHXB (Dexqonov)ga shahar hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Navoiy ziyosi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (lavozimi bo‘yicha) zimmasiga yuklatilsin.

**Shahar hokimi** **M.Egamqulov**

Navoiy shahar hokimining
2022 yil 3 oktabrdagi
250-5-79-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Navoiy shahridagi avtomobil yo‘llariga o‘rnatiladigan svetoforlar bo‘yicha**

**MA’LUMOT**

| T/r | Ko‘cha nomi | Joylashtirish joyi | Soni | Yo‘l belgisi nomi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | G‘alaba shoh ko‘chasi | 2-sonli akademik litsey qarshisida | 1 ta | Piyodalar tomonidan boshqariladigan svetofor |
| 2 | G‘alaba shoh ko‘chasi | “Darxon” savdo majmuasi qarshisida | 1 ta | Piyodalar tomonidan boshqariladigan svetofor |
| 3 | Navoiy ko‘chasi | “UZGAZOIL” AYOQSH qarshisida | 1 ta | Piyodalar tomonidan boshqariladigan svetofor |
| 4 | Imom al-Buxoriy ko‘chasi | “Ko‘zi ojizlar jamiyati” ma’muriy binosi qarshisida | 1 ta | Piyodalar tomonidan boshqariladigan svetofor |